



## XALQ DEPUTATLARI BULUNG'UR TUMAN KENGASHINING QARORI

2022 - yil 11 - avgust

VI-68-146-7-93-K/22

Bulung'ur tuman hokimligi

### **Bulung'ur tumanida 2022-yilda xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining iyul oyi yakuni ijrosi to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida "Xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar natijadorligi, kelgusidagi ustuvor vazifalar hamda hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish, 2022-yilda mehnat balansi va bandlik dasturini shakllantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida"gi 2021-yil 14-dekabr kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishining 55-sonli bayoni ijrosini ta'minlash maqsadida tumanda 2022-yilda xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining iyul oyi yakuni ijrosi to'g'risidagi tuman hokimining birinchi o'rinbosari D.Xabibullayevning hisoboti eshilib, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari tuman Kengashining oltmish sakkizinchi sessiyasi

### **QAROR QILADI:**

1. Tumanda 2022-yilda xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining iyul oyi yakuni ijrosi to'g'risida tuman hokimining birinchi o'rinbosari D.Xabibullayevning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining o'rinbosarlari (D.Xabibullayev, A.Elmuurotov, A.Xalikulov, A.Rizayev, A.Buriboyev, N.Mamadiyarova), tumandagi bo'lim va tashkilot rahbarlari bilan birgalikda 2022-yilga mo'ljallangan xizmatlar dasturidagi tegishli bandlari ijrosini oyma-oy, o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash bo'yicha tizimli tadbirlarni amalga oshirsin.

3. Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish va mahallabay ishlash

markazi (F.Shodmonov) hamda hokim yordamchilari bilan birgalikda har bir mahallada xizmatlar sohasi “Yo‘l xaritasi”da belgilangan chora-tadbirlarni o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta’minlasin.

4. Tuman Davlat soliq inspeksiyasi (Sh.Eshmurotov) xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar tomonidan haqqoniy xizmat ko‘rsatish hajmlari va ish o‘rinlarini oylik hisobotlarda ko‘rsatilishini monitoring qilib borsin.

5. Tuman hokimligi axborot xizmati (A.Jabborov), “Bulung‘ur hayoti” gazetasi (G‘.O‘rolov)larga tumanda xizmatlar ko‘rsatish sohasini rivojlantirish bo‘yicha ko‘rilayotgan choralar yuzasidan olib borilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Nomazov) hamda ijrosini ta’minlash tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (D.Xabibullayev) zimmlariga yuklatilsin.

**Kengash raisi**



**S.Astonov**